



1991-yildan
chiqa boshlagan

2023-yil. 8-son

ISSN 2010-5584

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН


Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz

YANA BIR DAVLATDA ALISHER NAVOIY HAYKALI QAD ROSTLADI



Qozog'iston poytaxti Ostona shahri markazida buyuk o'zbek shoiri, davlat arbobi Alisher Navoiyning balandligi to'rt metr-dan ortiq bo'lgan haykali o'rnatildi. Qayd etilishicha, haykal O'zbekiston xalq rassomi, haykaltarosh Jasvant Annazarov tomonidan yaratilgan.

Eslatib o'tamiz, ushbu shaharda Navoiy-ga haykal o'rnatish masalasi 2022-yilning 22-dekabrida, O'zbekiston va Qozog'iston Prezidentlari ikki mamlakat delegatsiyalari-ni kengaytirilgan tarkibi bilan bo'lib o'tgan muzokaralarida ma'lum bo'lgan edi.

Ma'lumot uchun, hozirga qadar Alisher Navoiy haykali Tokio, Shanxay, Vashington, Moskva, Minsk, Boku, Mozori-Sharif, O'sh, Dushanbe, Seul kabi shaharlarda qad rostla-gan.

Ushbu sonda



METODIK TAVSIYA

Mumtoz adabiyot
mazmunini o'rganish va
o'rgatish metodikasiga
doir muammolar

3
bet



TILSHUNOSLIK

Ingliz va o'zbek tillarida
qisqartirish orqali so'z
yasalishi: o'xshash va
farqli jihatlar

7
bet



TADQIQOT

O'quvchilar tanqidiy
tafakkurini
rivojlantirishga xos
xususiyatlar

18
bet



ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ

Пространство города
в поэтическом мире
Марины Цветаевой

64
bet

ABDULLA SHEROV «O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ SHOIRI» FAXRIY UNVONI BILAN TAQDIRLANDI



O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining o‘ttiz ikki yilligi munosabati bilan fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, adabiyot, madaniyat, san’at sohalari va ommaviy axborot vositalari xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni e’lon qilindi.

Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlash, Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlarga qo‘shgan munosib hissasi, o‘zining yorqin iste’dodi, keng qamrovli ijodiy, ilmiy-amaliy faoliyati bilan xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirish, mamlakatimizda ilm-fan, ta’lim, adabiyot, madaniyat va san’at sohalari rivojlantirish, yoshlarimizni ona yurtga muhabbat va sadoqat, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash yo‘lidagi ulkan xizmatlari hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun bir guruh vatandoshlarimiz qatorida O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, shoir Abdulla Sherov «O‘zbekiston Respublikasi xalq shoiri» faxriy unvoni bilan taqdirlandi.

Abdulla Sher 1943- yil 5-avgustda Toshkent viloyati Chinoz tumanida hunarmand-misgar oilasida tug‘ilgan. O‘rta maktabni 1960- yil tugatib, dastlab boshlang‘ich maktab o‘qituvchisi, keyin tuman gazetasida adabiy xodim bo‘lib ishladi. 1962 – 65- yillarda Sharqiy Olmoniyada harbiy xizmatni o‘tadi. 1965 – 70- yillarda

Toshkent davlat universiteti (hozirgi O‘zMU) Jurnalistika fakultetida o‘qidi. 1969-yildan boshlab “Guliston” jurnalining adabiy xodimi, bo‘lim mudiri, mas’ul kotibi, “O‘zbekiston fizkulturchisi” gazetasi muharriri o‘rinbosari lavozimlarida ishladi. 1970 – 81- yillarda Moskvadagi Oliy Adabiyot kursida o‘qidi. 1981 – 1984-yillar mobaynida “Yoshlik” jurnalining mas’ul kotibi, O‘zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi birinchi kotibi o‘rinbosari, Yozuvchilar Uyushmasi Toshkent viloyati bo‘limining mas’ul kotibi lavozimlarida ishladi. 1989- yildan 2011-yilgacha O‘zbekiston Milliy Universiteti Falsafa fakulteti Etika va estetika kafedrasida katta o‘qituvchi, dotsent va kafedra mudiri lavozimlarida ishladi. 2011- yildan hozirgi paytgacha erkin ijodkor.

U 1975 -yildan buyon O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi, 1977-yildan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, “Mehnat shuhrati” ordeni sohibi (2016), Oliy ta’lim a’lochisi (2000).

Abdulla Sher 1958 yildan boshlab badiiy ijod bilan shug‘ullanadi. 1959 yili ilk marta she’ri matbuotda e’lon qilingan. Birinchi she’rlar to‘plami “Ko‘klam tabassumi” 1973 yili chop etilgan. Shundan keyin u “Alyor” (1977), “Atirgul soyasi” (1979), “Roz” (1980), “Kuz hiloli” (1983), “Qadimgi kuy”, “Aliy shipovnik” (1987), “Nuqtadan so‘ng” (1989), “Toqat” (1997), “Yonayotgan yo‘l” (2007), “Yomg‘irlar oralab” (2009), “Sarbast qo‘shiqlar”, “Sevgi olmoshi”, “Sevilmagan mening sevgilim” (2010), “Gul yillar, bulbul yillar” (Saylanma, 2012), “Kurtaklarga berkingan bahor” (2016), “Chayqalgan qayiqalarda” (2019) she’riy kitoblarini va “Asrlarning asraganlari” nasriy to‘plamini chop ettirdi. Ayni paytda u Jorj Bayronning “Don Juan” she’riy romanini ingliz tilidan, Haynrix Haynening “Qo‘shiqlar kitobi” va “Olmoniya” dostonini olmon tilidan tarjima qilgan. Shuningdek, rus tilidan Pushkin, Lermontov, Nekrasov, Axmatova, Charens, Tvardovskiy va boshqa shoirlar asarlarini ham o‘zbek tiliga o‘giran. Uning she’rlari va dostonlari rus, litva, ingliz, ispan, ozarbayjon, turk, qozoq, qrimtatar, assam va boshqa tillarga tarjima qilingan.

Shu bilan birgalikda Abdulla Sher faylasuf olim sifatida ham mashhur. Ustozning maqolalari, suhbatlari mamlakatimiz ilmiy jamoatchiligi tomonidan doimo o‘ziga xos yangilik sifatida qabul qilib kelinadi. Uning “Axloqshunoslik” (200, 2003, 2010) va “Estetika” (2014, 2015) darsliklaridan esa xorijiy mamlakatlarda ham foydalaniladi. “Abadiyat va umr” (2017) hamda “Go‘zallik yog‘dusi” (2017) deb atalgan yirik falsafiy, ma’rifiy va falsafiy-estetik kitoblar muallifi.

Hozirgi paytda u erkin ijodkor sifatida badiiy va falsafiy asarlar hamda yangi tarjimalar ustida ish olib bormoqda.



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2023-yil.

8-son.

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Tahrir hay'ati:

Hilola UMAROVA
Dilshod KENJAYEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Yorqinjon ODILOV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANIYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
To'liqin SAYDALIYEV
Ravshan JOMONOV
Zulxumor MIRZAYEVA
Qozoqboi YO'LDOSHEV
Tajixon SABITOVA
Salima JUMAYEVA
Nilufar NAMOZOVA
Qayum BAYMIROV
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Yuliya MUSURMANOVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
web-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi"dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqiriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Mualliflarning ismi va familiyasi shaxsini tasdiqlovchi pasportiga muvofiq yoziladi.

Bosmaxonaga. 2023.28.09. da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84/8. Shartli bosma tabog'i 6,0. "Arial" garniturasini. 10, 11 kegl. "ECO TEXTILE PRODUCT" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Buyurtma ___ Adadi 3550 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

MUNDARIJA

DOLZARB MAVZU

Baxtiyor Mengliyev. Mumtoz adabiyot mazmunini o'rganish va o'rgatish metodikasiga doir muammolar 3

TILSHUNOSLIK

Rahmatillo Shukurov, Feruz Abduraximova. Ingliz va o'zbek tillarida qisqartirish orqali so'z yasalishi: o'xshash va farqli jihatlari 7
Hushnoza Abduvohidova. Ingliz va o'zbek tillarida qishloq xo'jaligi terminologiyasi 9
Nilufar Tukhtaeva. Functional tasks of language in the development of linguistic competences for future teachers 11

TAHLIL

Dilafro'z Raxmatova. Saidahmad Siddiqiy-Ajziyning "Ibrati mir'ot" asarida til va uslub masalasi 12
Durdona Rasulmuxamedova. Qissada davr muammolarining aks etishi 14
Irina Rajabova. Artistic composition: unity of portrait and landscape 16

TADQIQOT

Zulxumor Mirzayeva, Nilufar Kadirova. O'quvchilar tanqidiy tafakkurini rivojlantirishga xos xususiyatlar 18
Zayniddin Narmuratov. Jahon tilshunosligida frazeologik birliklarning lingvistik talqini 22
Turg'unoy Kaziyeva. Germenevtik dialog va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish asoslari 25
Bobur Turdaliyev. Xorijiy tillarni o'rganishda og'zaki nutq malakasini oshirishning nazariy va amaliy metodologiyasi 27
Otaxon Xamzayev. Ingliz va o'zbek tillarida kasbga oid maqollarning lingvomanadaniy xususiyatlari 29
Shahnoza Xushmurodova. Language, identity and bilingualism 31
Iroda Jamoliddinova. Qat'iyat konseptining frazemalar orqali ifodalanishi 33
Sabohat Qahharova. Semantik domenlar - lug'aviy birliklarni yig'ish va lug'at yaratish vositasi 35

TARJIMASHUNOSLIK

Shohista Jumanova. Cho'ponning "Kecha va kunduz" romanida badiiy tarjima va "Ko'ngil" leksemasining iboralarda qo'llanilishi hamda ayrim antonomik munosabatlar 38
Dilrabo Abduraxmonova. Boburnoma nemischa tarjimalarda 40

KICHIK TADQIQOT

Oybek Sulaymanbekov. Maktab o'quvchilarida ijtimoiy burch hissini qaror toptirishning amaliy-didaktik tizimi 42
Ilhom Botirov. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tizimini shakllantiruvchi asosiy yo'nalishlar xususida 44
Noila Mustafoeva. Enhancing legal writing competence of law students on working with official documents 46
Sarvinov Umarova. The concept of pedagogical tolerance in the educational process 47
Shakhlo Botirova. Chronotope types in the stories of Sh. Kholmiraev 3-bet muqova

ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ

Рануша Атаева. Текст – основное средство воспитания, обучения и развития курсантов на занятиях по русскому языку 49
Эльвина Велишаева. Изучение стилистического потенциала клише на занятиях по русскому языку в группах с узбекским языком обучения 52

ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ

Дилдархан Хашимова. Обучение языкам с использованием электронной учебной литературы 54
Ольга Милютин. Несколько приемов вызова интереса студентов-билингвов к русскому языку и его культурноносным компонентам 56

СОПОСТАВИТЕЛЬНОЕ ЯЗЫКОЗНАНИЕ

Мавлуда Нурматова. Общая сопоставительная характеристика фразеологизмов русского и узбекского языков 58
Ирина Шатова. Профессионализмы в общеупотребительной лексике русского и узбекского языков 59

МАСТЕРСТВО ПЕРЕВОДА

Зухриддин Нуридинов. Переводы с русского языка на узбекский: проблемы и вызовы 61

ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ

Нина Тимонина. Характер и функция природы в рассказах А.П.Чехова 62
Диана Шарапова. Пространство города в поэтическом мире Марины Цветаевой 64
Дилфуза Садинова. Композиционные типы узбекских народных терма 65

НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

Гулмира Мамаджанова. Культурный код как реализация метафорической модели 67
Юлия Землина. Интегративные особенности семантики терминов «гражданственность» и «патриотизм» 70
Хусниябону Рахимова. Компаративистский анализ степеней сравнения имен прилагательных 73

ФОРМЫ ОБУЧЕНИЯ

Насиба Ниязова. Использование кейс-технологии при обучении монологической и диалогической речи студентов-юристов 76
Светлана Ярцева. «Спанглиш» как средство современной творческой самоидентификации 77
Гузаль Яхшимуратова. Психолого-педагогические аспекты дифференциального обучения на уроках литературы 79

zandlar tarbiyasiga sobit turish vazifasi yuklanganidan dalolat beradi.

Qadimdan polvonlar belini bog'lab kurash maydoniga tushadilar, jismoniy kuch talab qilinadigan ishga kirishishdan avval ham erkaklar beliga belbog' bog'laydilar, pulni ham belbog'ga o'rab bellariga bog'lab yurishgan, kimningdir yaqin kishisi olamdan o'tganda ham bel bog'langan. Demakki, belbog'da bir hikmat, ma'no va mohiyat mavjud. U insonning tanasidagi kuch, g'ayrat va shijoatni muayyan bir maqsadga yo'naltirish, inson gavdasini tik tutib turishga xizmat qiladi, og'ir jismoniy yuklardan umurtqa pog'onani saqlab, yukni gavda bo'ylab teng taqsimlanishiga yordam beradi, belga quvvat beradi.

Bel bog'lash frazemasi polisemantik bo'lib, tilimizda uchta frazeologik ma'no anglatadi:

1. Shaylanmoq, otlanmoq. Ishga kirishishdan avval bel bog'lash holatidan kelib chiqib, har qanday yumushga tayyorlanish, hozirlanish frazeologik ma'nosi shakllangan: astoydil kirishmoq, ahd qilmoq.

Ahd qilmoq frazeologik ma'nosida qat'iyat ma'nosi bor. Avvallari qandaydir og'irroq yumushga kirishish,

yo'lga chiqish uchun bel bog'langan. Bu holat asboblarni belga bog'lab olish, pul yoki uzoq yo'l uchun kerakli narsalarni belga bog'lash, belni qattiq ushlab turish, kiyimlarni (oldi ochiq chopon, yaktaklarni) ishga moslab olish kabi maqsadlarda amalga oshirilgan. Yoki polvonlarimiz ham kurashga tushishdan avval belini bog'lab olgan. Mana shu jarayon, bel bog'ladimi, demak, aniq shu ishni bajaradi; bel bog'ladimi, demak, aniq yo'lga chiqadi; bel bog'ladimi, demak, qarori qat'iy, aniq kurashadi degan assotsiatsiyalar natijasida frazeologik ma'no vujudga kelgan.

Demak, frazemalar orqali ham qat'iyat konsepti voqelanar ekan. Bunda o'zbek xalqining:

– aytilgan gapida qat'iy turishi (*bir so'zi ikkita bo'lma-di; bir so'zini ikkita qilmaslik; gapida turmoq; so'zida turmoq; lafzida turmoq; gapining ustidan chiqmoq...*);

– qiyin sharoitlarda ham fikridan qaytmaslik kerakligi (*ikki oyog'ini tirab olmoq; ikki oyog'ini bir etikka tiqmoq*);

– aytilgan fikrdan hech qachon qaytmaslik (*ikki dunyoda ham*);

– so'zdan qaytish o'zlikdan qaytishdir (*otimni boshqa qo'yaman*) kabi fikrlari o'z aksini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1980.
2. Jumayev Z. Frazeologik birliklarning semantik va lingvokulturologik tadqiqi. Filol. fan. falsafa dok. (PhD) diss... avtoref. – Jizzax, 2021.

Sabohat QAHHAROVA,

O'zbekiston milliy universiteti tayanch doktoranti

SEMANTIK DOMENLAR – LUG'AVIY BIRLIKLARNI YIG'ISH VA LUG'AT YARATISH VOSITASI

Annotatsiya. Rivojlanayotgan tillar hamjamiyatida so'zlarni to'plash va nashr etish o'z tillarini qanday qadrlashini ko'rsatuvchi ko'zgudir. Chunki bugungi kunda zamonaviy elektron formatdagi lug'atlar qaysi tilda ko'plab yaratilgan bo'lsa, o'sha millat tilining mavqeyi yuksalgan. Shu bois tilimizga xos mavjud lug'atlarni takomillashtirish va uning yangi namunalarini yaratishimiz zarur. Bu borada semantik domen lug'aviy birliklarni yig'ish va lug'at yaratish vositasi sifatida muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: semantik domen, semantik uya, domenlar ro'yxati, lug'atni ishlab chiqish jarayoni.

Annotation. Collecting and publishing words in developing language communities is a reflection of how they value their languages. Because today, in the language in which many dictionaries in modern electronic format have been created, the position of the language of that nation has risen. Therefore, it is necessary to improve existing dictionaries specific to our language and create new examples of it. In this regard, the semantic domain is of great importance as a means of collecting lexical units and creating a dictionary.

Keywords: semantic domain, semantic net, list of domains, dictionary development process.

Аннотация. Сбор и публикация слов в развивающихся языковых сообществах является отражением того, как они ценят свои языки. Потому что сегодня в языке, на котором создано множество словарей в современном электронном формате, поднялись позиции языка этого народа. Поэтому необходимо улучшать существующие словари, характерные для нашего языка, и создавать новые его образцы. В связи с этим большое значение имеет семантический домен как средство сбора лексических единиц и создания словаря.

Ключевые слова: семантический домен, семантическая сеть, список доменов, процесс разработки словаря.

Xalqaro fonetik alifboning mavjudligi fonologik tizimlarni tillararo taqqoslash, standartlashtirilgan grammatik kategoriyalarning mavjudligi esa grammatik uni-

versaliyalarni izlash imkonini berdi. Antropologiyada madaniy materiallar konturi, kimyoda esa universal davriy jadval mavjud. Semantika nimaga ega? Men

semantik domenlarning standartlashtirilgan ro'yxatini ishlab chiqish uchun hamkorlik qilishni taklif qilaman, – deydi so'zlashuvchisi kam bo'lgan tillarni targ'ib qilish va rivojlantirishga bag'ishlangan ko'ngillilar tashkiloti – SIL (The Summer Institute of Linguistics) International tadqiqotchisi, tilshunos Ron Mo [1: 215]. U 1800 ga yaqin ingliz tilidagi so'zlarning semantik domenlar ro'yxatini o'z ichiga olgan veb-sayt namunasini ishlab chiqdi va uning maqsadi dunyodagi istalgan til uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan domenlarning to'liq ro'yxatini tuzish edi. Ron Mo: “Men boshidanoq so'zlarni to'plash uchun semantik domenlar ro'yxatidan foydalanish mumkinligini bilardim, “suv havzalari”ning semantik domeniga tegishli so'zlar (masalan, okean, ko'l, daryo, qirg'oq, to'lqin va boshqalar)ni ro'yxatlashni boshladim, o'n besh daqiqa ichida 169 ta so'z bo'ldi, shu sabab menga kerak bo'lgan narsa semantik domenlar ro'yxati ekanligini angladim va til so'zlarini yillar emas, balki bir necha kun ichida to'plashim mumkinligini his qildim” [1: 216], deydi.

Kognitiv nazariya tamoyillariga asoslanib, SIL International xodimi Ron Mo lug'atni ishlab chiqish ja-

rayoni (Dictionary Development Process – DDP) nomli texnikani yaratdi, uning birinchi bosqichi – tezkor so'zlarni yig'ish. Ongimizdagi so'zlarni ulkan munosabatlar tarmog'ida tashkil qilishimiz haqida jiddiy dalil sifatida ularni “semantik domenlar” deb nomlangan guruhlar-ga to'plash kerakligini ta'kidladi. Ko'p yillar davomida leksikograflar so'zlarni to'plash uchun semantik so-halardan foydalanish mumkinligini taklif qilishdi. Lekin bu domenlarning keng ro'yxatini talab qiladi. Shu sababdan Mo so'zlarni to'plash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan domenlar to'plamini ishlab chiqdi. Shuningdek, u insonlarning tafakkurini kengaytirish va mushohada qilishlari uchun har bir domen uchun savollar va unga namuna shaklda javoblarni taqdim qildi.

Semantik domen ichidagi har bir so'z bir-biri bilan sintagmatik va paradigmatic kabi leksik munosabatlar orqali bog'lanadi. Shu nuqtayi nazardan tilshunoslikda semantik domen semantik uya, semantik maydon tushunchalariga yaqin termin sanaladi. Ron Mo tadqiqotida har bir domen o'z ichiga quyidagi elementlarni olishi keltiriladi [2; 3]:

1-jadval

HOME	SEMANTIC DOMAINS	CONTACT	BIBLIOGRAPHY
Home » Semantic Domains » 7 Physical actions			
7 Physical actions			
Use this domain for general words for physical actions—moving yourself, moving things, and changing things.			
What general words refer to physical actions?			
act, action, active, activity, do, event, process			
» 7.1 Posture » 7.2 Move » 7.3 Move something » 7.4 Have, be with » 7.5 Arrange » 7.6 Hide » 7.7 Physical impact » 7.8 Divide into pieces » 7.9 Break, wear out			

saralash uchun raqam

domen yorlig'i (domenning asosiy g'oyasini aks ettiruvchi so'z yoki qisqa iboradan iborat)

domenning qisqacha tavsifi

odamlarga domenga tegishli so'zlar haqida o'ylashga yordam beradigan bir qator savollar

domenga tegishli bo'lgan har bir savol ostida inglizcha so'zlarning qisqa ro'yxati³

U yuqoridagi ro'yxat ingliz tili misolida dunyoning istalgan tili uchun mo'ljallanganligini inobatga olgan holda shu tilga mansub leksik birliklarning semantik ji-

hatdan o'xshash domenlarini iyerarxik shaklda to'qqizta asosiy sarlavha ostida birlashtirdi:

2-jadval

Semantik domenlar	1	Koinot, yaratilish	quyosh, havo, dunyo, suv, tuproq, atmosfera, tirik mavjudotlar (o'simlik, hayvon), tabiat, atrof-muhit
	2	Insoniyat	tana a'zolari va funksiyalari, sezish, idrok etish, tana holati, sog'lik, hayot
	3	Til va tafakkur	shaxsiyat, ruhiy holat, o'ylash, xohish-istak, hissiyot, muloqot, ta'lim
	4	Ijtimoiy axloq	shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy faoliyat, xulq-atvor, farovonlik va qiyinchilik, vakolat, hukumat, qonun, huquq, janjal, diniy e'tiqod
	5	Kundalik hayot	uy jihozlari, oziq-ovqat, kiyim-kechak, chiroyli ko'rinish, yong'in, tozalash, uxlash, yashash
	6	Ish va kasb	mehnat, dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilik, bino va qurilish, kasb-hunar, asbob, mablag, biznesni tashkil etish
	7	Jismoniy harakatlar	durum (ushbu domenda inson tanasining holati yoki pozitsiyasini ko'rsatadigan umumiy so'zlar (o'tirish, yotish, tiz cho'kish, ta'zim qilish, suyanish, egilish kabi) o'rin olgan), ko'chirish, biror narsani siljitish, ega bo'lish, tartibga solish, yashirish, jismoniy ta'sir etish, bo'laklarga bo'lish, buzilish, eskirish
	8	Holat, shakl	miqdor, qiymat, katta, xususiyat, xarakter, taqqoslash, umumiylik, namuna, model, taqlid qilish, nusxalash
	9	Grammatik terminlar	harf, undosh, unli, bo'g'in, tuslanish, turlanish, hol, kelishik, paradigma, qoida, birlik, ko'plik, ot, fe'l, sifat, ergash gap, bog'lovchi, bosh gap, yuklama, artiki, so'z, kesim, bo'lishsizlik, gap bo'lagi, birikma, hosila

Xuddi shu modelda o'zbek tiliga xos leksik birliklarning denotativ va nutqiy jarayondagi turli xil konnotativ ma'nolarini to'plab, muayyan tilda zamonaviy elektron lug'atlar yaratish uchun semantik domenlarni ishlab chiqish zarur. Bu nafaqat til rivoji, balki tarjimonlar, ijodkorlar, til o'rganuvchilar uchun ham bir qator afzalliklarga ega. Bundan tashqari, unda kompyuter ma'lumotlar bazalarini alifbo tartibida yoki domen bo'yicha saralash ham mumkin. Semantik domen shunday xususiyatga egaki, u til birliklarining ma'nolarini alohida, nutqiy qurshovdan ajratilgan holda tadqiq etmaydi, balki o'z semantik uyasi-ga bog'liq holda yaxlit ifodalaydi. Zero, leksik mazmuniy

to'da a'zolarini alohida o'rganishdan ko'ra ularni birgalikda o'rganish ancha samaraliroqdir [4].

Leksemalarni semantik domen shaklida tadqiq etishda aynan so'zni turkumlarga ajratib, uning ma'noviy guruhlarini belgilash yo'lini asosiy mezon qilib olish kerak emas, albatta. Bu morfologik sath shundoq ham ot yoki fe'lining ma'noviy guruhlarini shaklida qayd etilgan. Masalan, yuqorida keltirilgan jadvaldagi "jismoniy harakatlar" domeni yorlig'ida domenga tegishli so'zlar: *harakat, harakat qilmoq, faol, faoliyat, hodisa, jarayon* kabilarda turli turkumga oid birliklar keltirilganligi va u ham to'qqizta kichik semantik domenlarni o'zida jamlaganligini ko'rish mumkin.

3-jadval

Home » Semantic Domains » 7 Physical actions 7 Physical actions Use this domain for general words for physical actions--moving yourself, moving things, and changing things. What general words refer to physical actions? act, action, active, activity, do, event, process » 7.1 Posture » 7.2 Move » 7.3 Move something » 7.4 Have, be with » 7.5 Arrange » 7.6 Hide » 7.7 Physical impact » 7.8 Divide into pieces » 7.9 Break, wear out	• 7.1 <u>Durum</u> • 7.2 <u>Ko'chirish</u> • 7.3 <u>Biror narsani siljitish</u> • 7.4 <u>Ega bo'lish</u> • 7.5 <u>Tartibga solish</u> • 7.6 <u>Yashirish</u> • 7.7 <u>Jismoniy ta'sir</u> • 7.8 <u>Bo'laklarga bo'lish</u> • 7.9 <u>Buzilish, eskirish</u>
---	---

Ana shu kichik semantik domenning har biri ustiga kompyuter sichqonchasi olib borib tegilsa, yana unga

mansub domen birliklari ekranda namoyon bo'ladi.

4-jadval

7.2 Move

Use this domain for intransitive verbs of movement referring to moving your whole body to a different location. There are many components of meaning involved in verbs of movement. They can include a source location (from), a goal location (to), a path (along), manner (walk, run), speed (race, crawl), direction (forward, back, side, up, down, toward, away from), shape of the path (straight, curve, circle, angle), relationship to some object or objects (on, hang, against, between, across, through, into, out of, onto, off of, around), proximity (near, far), multiple movements (back and forth, return, bounce), inclusion with other objects or parts of objects (join, leave, collect, disperse, unite, separate), volition (go versus drift), intransitive versus transitive (move versus move something). Some verbs of movement do not involve moving from one place to another, but express bodily movement.

OMC Codes: 481 Locomotion

Louw Nida Codes: 15 Linear Movement

15A Move, Come/Go

16 Non-Linear Movement

What general words refer to moving your body to a different location?

move, movement, change position, maneuver, jockey for position, budge

What words refer to beginning to move?

stir, make a move

What words describe something that is moving?

moving, be in motion

- » 7.2.1 Manner of movement
- » 7.2.2 Move in a direction
- » 7.2.3 Move toward something
- » 7.2.4 Travel
- » 7.2.5 Accompany
- » 7.2.6 Pursue
- » 7.2.7 Not moving
- » 7.2.8 Send someone

➤	7.2.1 <u>Harakat qilish uslubi</u>
➤	7.2.2 <u>Bir yo'nalishda harakatlanish</u>
➤	7.2.3 <u>Narsa tomon harakatlanish</u>
➤	7.2.4 <u>Sayohat</u>
➤	7.2.5 <u>Hamrohlik qilish</u>
➤	7.2.6 <u>Ta'qib qilish</u>
➤	7.2.7 <u>Harakatsiz</u>
➤	7.2.8 <u>Shaxsga ta'sir etish</u>

Shu domen yorlig'i tarkibidagi "ko'chirish" deb nomlangan kichik domen ma'lum bir jism yoki tanani boshqa joyga ko'chirish mazmunini o'zida ifoda etuvchi birliklarni jamlaydi. Harakat fe'llarida ko'plab ma'no komponentlari mavjud. Ular joylashuv manzili (-dan), maqsad manzili (-ga), yo'l (bo'ylab, yoqalab), usul (yurish, yugurish), tezlik (poyga, emaklash), yo'nalish (bor, kel, ket, qayt)ni o'z ichiga oladi.

Harakat qilish uslubi domeni "yurish" semali barcha lug'aviy birliklarni o'z ichiga oladi. Undagi semantik uyalar ham umumiylikdan xususiylikka qarab bir nechta guruhlariga bo'linib ketadi, shu sababdan semantik domen so'zning potensial ma'nolari qatoridir, deyish mumkin. So'zning potensial ma'nolari doirasini tushunish ma'lum bir nutq parchasida so'z nimani anglatishini aniqlash uchun boshlang'ich nuqtani beradi. Ma'nolarni izlash esa semantik sohalarni o'rganishga yordam beradi.

Inson miyasi leksik munosabatlar bo'ylab so'zdan

so'zga sakrab, semantik sohaga tegishli so'zlarni tezda eslab qolish qobiliyatiga ega [5]. Demak, kimdandir "quyosh" so'zi bilan bog'liq bo'lgan so'zlarni sanab berishni so'rasangiz, u sizga "oy, yorug', quyosh nuri, yorug'lik, quyosh chiqishi, kunduzi, quyosh botishi, of-tob urishi" kabi bir qancha so'zlarni tezda aytib tashlashi mumkin. Bu, birinchidan, o'sha tilni mukammal bilganidan bo'lsa, ikkinchidan, bu mukammal bilim ortida shu til lug'atlarining zamon talabi darajasida turli xil elektron shakllari mavjudligidan dalolat beradi. Bu kabi lug'atlar imloni standartlashtirish, adabiyotni rivojlantirishga yordam beribgina qolmasdan tarjimachilikda ham muhim ahamiyatga ega. Buning uchun har bir tilning o'ziga xosligini hisobga olgan holda namuna shaklda qayd etilgan domenga asoslanib, o'z ona tilisi uchun semantik lug'atlarni yaratish zarur. Semantik lug'atlar tezauruslar yaratish, qolaversa, tabiiy tilni qayta ishlashda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Moe Ronald. Compiling Dictionaries using semantic domains. Lexikos 13 (AFRILEX-reeks/series 13: 2003): 215-223.
2. Moe Ronald. What is a semantic domain? Semantic domains. Retrieved 12 July 2014.
3. Ron Moe. Semantic domains. <http://semdom.org> 2013.. (Accessed 2013-04-01).
4. Wierzbicka Anna. Semantics, primes and universals. – Oxford: Oxford University Press, 1996.
5. <https://rapidwords.net/>



Tarjimashunoslik

Shohista JUMANOVA,

Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

CHO'L PONNING "KECHA VA KUNDUZ" ROMANIDA BADIY TARJIMA VA "KO'NGIL" LEKSEMASINING IBORALARDA QO'LLANILISHI HAMDA AYRIM ANTONOMIK MUNOSABATLAR

Badiiy tarjima insoniyat kamol topishida muhim rol o'ynaydi. Har bir kishi bolalikdanoq o'z hayoti davomida u bilan bog'langan bo'ladi (masalan, Andersen, aka-uka Grimm ertaklari). Statistikaga ko'ra, tarjimani mutolaa qiluvchilarga qaraganda, asosan, matnlarni asliyatda o'qiydiganlar ancha ko'p ma'lumotga ega bo'lishadi. Hech kimga sir emaski, har qanday yozuvchi o'z asarlarining nafaqat mahalliy, balki butun jahon kitobxonlari tomonidan tan olinishini xohlaydi. Yuqorida keltirilgan maqsadga erishish uchun esa, sifatli va aniq badiiy tarjima unga qo'l kelishi mumkin. Eng yorqin yozilgan badiiy asarlar tarjimon tomonidan aniq va ravon yoki aksincha yetkazib berilishi hamda bu holat o'quvchiga turlicha ta'sir qilishi mumkin. Badiiy tarjimonlarning vazifalari nafaqat badiiy asarlarni tarjima qilish, balki gazetalar, saytlar va jurnallar uchun publitsistik va reklama matnlarini tarjima qilishni ham o'z ichiga oladi. Badiiy tarjima sohasiga xotiralar, skriptlar, filmlarga subtitrlar, qo'shiq matnlari ham kiradi. G'aybulli Salomov tarjima-

ga quyidagicha ta'rif beradi: "Tarjimaning bosh xossasi uning boshqa til vositalari bilan qayta yaratishdan iborat ijodiy jarayon, so'z san'ati ekanligidir" [1: 93].

Darhaqiqat, tarjima orqali bir madaniyatning urf-odat, an'analari ikkinchi madaniyat vakillariga tanishtiriladi. Ushbu holatda tarjimondan ulkan ijodkorlik qobiliyati talab etiladi. Nasr yoki she'rning badiiy tarjimasini amalga oshirish tarjimondan ulkan mahoratni talab qiladi. Bu holatda tarjimon xuddi shu yozuvchi yoki shoir kabi o'ylashi, muallif dardlari, ichki kechinmalarini anglashi, asarni qayta yaratishi lozim va buning uchun u kuchli bilim hamda iste'dodga ega bo'lish kerak. Shuning uchun tarjimonlar orasida badiiy tarjima eng murakkablardan biri hisoblanadi. Bu biznes tarjimasi bilan taqqoslanmaydi, bu yerda kutilgan ma'lumotlarni yetkazish uchun standart iboralar, estetik did, mahorat talab qilinadi.

Badiiy tarjima sinxron tarjimadan tubdan farqlanadi, unda og'zaki tarzda emas, balki yozma tarzda fikrni